



Tadqiqot UZ



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APREL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)

КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва ақтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Meliboyeva Saodat Ergashevna ADABIYOT DARSLARIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	7
2. Bozorova Madina Isroilovna QADRING VA G'URURING HAMISHA BALAND BO'LSIN- ONA TILIM.....	9
3. Safarova Gulbahor O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI	11
4. Qurbanova Kumushoy Rashidovna BEKJON RAHMON IJODIDA O'ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI MASALALARI.....	13
5. Saloydinova Nazokat Shamsidinovna ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR"ROMANIDAGI MA'NAViy TUSHUNCHALAR TAHLILI.....	15
6. Самандарова Сожида Фурқат қизи ЖОРЖ ОРУЭЛЛ АСАРЛАРИДА ТОТАЛИТАР ТУЗУМНИНГ САТИРИК ИФОДАЛАНИШИ.....	17
7. Murodova Gullola Salimjonovna ZULFIYA IJODIDA UMUMINSONIY G'OYALAR UYG'UNLIGI.....	20
8. Азимова Зубайда Арабовна, Эгамова Мехринисо Каримовна ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО	22



АДАБИЁТ

АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Meliboyeva Saodat Ergashevna
Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani
12-umumta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel:+99891 241-05-25

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni dunyoqarashini o'stirish, tafakkurini kengaytirishda adabiyotning o'rni, o'quvchilarni adabiyot darslariga qiziqtirish metodlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Adabiyot o'qitish metodikasi, adabiy ta'lim, adabiy qahramon ,taqqoslash va boshqalar.

Yosh avlodni yetuk va komil inson qilib tarbiyalash va ularni manaviy va marifatli qilib tarbiyalashda adabiyotning o'rni juda muhimdir. Adabiy ta'limda yosh avlodni adabiyotga muhabbat ruhida tarbiyalab, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatishda samarali metodlardan foydalanish zarur.

Mustaqillik davrida adabiyot o'qitish metodikasi sohasida tadqiqot olib borgan Q.Yo'ldoshev, S.Matjonov va M.Mirqosimova singari olimlarning ilmiy ishlarida o'quvchi tafakkuri mustaqilligi masalasiga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Maktab davrida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda adabiy ta'lim o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'tiladigan darslardagi izlanishlar natijasida o'quvchilar avvaldan ayon bo'lgan yagona xulosaga kelishadi. Masalan: to'qqiz karra to'qqiz dunyoning hamma burchagida, qaysi tilda, qanday yo'llar bilan yechilishidan qat'i nazar, natija, to'g'ri javob bitta-sakson bir. Bu mutaxassislar tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan haqiqat-xulosa. Ammo adabiy ta'limning o'ziga xosligi shundaki, unda har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan muammoni tegishli maqsad va vazifalarini belgilagan holda bilimi, hayotiy tajribasiga tayanib turli yo'l, usul, vositalar, yordamida mustaqil ravishda hal qilib, faqat o'zining badiiy haqiqatini chiqarishi mumkin. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida adabiy qahramonning shaxs sifatidagi o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqlash asosida kechadi. Dars jarayonida o'quvchilar dabi qahramonni o'rganish orqali o'zlarining ichki dunyosini ham teran his qilib o'rganadi va o'zlaridagi kamchilik va qusurlarni to'g'irlashga harakat qiladi. Adabiy ta'lim jarayonida taqqoslash –tafakkurning oddiy, shu bilan birga favqulodda ahamiyatli turi hisoblanadi.

Masalan, 9-sinfda Abdulla Qodiriyning "O'tgan Kunlar" asari qahramonlari Kumushbibi va Zaynab timsollarini o'zaro taqqoslash mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchidan quyidagicha yo'naltiruvchi savol-topshiriqlar tuzish talab qilinadi. "Kumushbibi bilan Zaynabning qanday o'xshash jihatlari bor? Kumush tabiatidagi fazilatlarining ildizini matndan topib, izohlang" va hk.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi tafakkuri mustaqilligiga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchilarni darslikda berilgan tushuncha-yu xulosalarning to'g'riligini tekshirish va dalilashga, bu yo'lda eng qulay usul va metodlardan foydalanishga, har bir narsa –hodisa yuzasidan mustaqil fikr yuritishga, vaziyatga ijodiy yondashishga, birovlariga, hattoki o'qituvchisiga ham, yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar, o'z fikrini aytishga o'rgatish talab qilinadi. Shuningdek, adabiy ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni badiiy adabiyotga ham qiziqtirishi va eng sara asarlarni



birga mutoala qilib, birgalikda muhokama qilishi lozim. Bu metod ham bolalarni ijodiy fikrlashi va dunyoqarashini kengaytrishda muhim omil hisoblanadi. Badiiy adabiyotga mehr qo'ygan o'quvchining nutqi ravon va tafakkuri va tasavvuri kengayib, atrofga teran nigoh tashlay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Safo Matjon .Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)-T:"O'qituvchi",1996
2. Kattabekov A.,Raxmonov V.O'zbek adabiyoti .8-sinf uchun darslik-majmua T:"O'qituvchi", 1993



QADRING VA G'URURING HAMISHA BALAND BO'LSIN- ONA TILIM

Bozorova Madina Isroilovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
14-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish muammolari, muloqot va yozuv, ko'rgazmalarda ona tiliga hurmatsizlik qilmaslik va ona tilini rivojlantirish masalalari tadqiq qilinadi.

Kalit so'z: alifbo, og'zaki va yozma nutq, savodxonlik, e'tiborlilik, o'zbek tilini rivojlantirish

Onam kabi muqaddas va yagona tilim hisoblanmish o'zbek tili haqida maqola yozar ekanman, qalbim faxr va g'ururga to'ladi. Birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasini bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir". Ammo bugungi kunda tilimizning davlat tili sifatidagi mavqei, rivoji, taraqqiyoti, kundalik hayotimizdagi o'rni borasida o'ylasak, bu borada bir qancha muammolar borligi ko'zga tashlanadi. Tilimiz davlat tili maqomini olganiga chorak asrdan ziyod vaqt o'tdi. Biz istiqbolga erishmasdan oldin ilk qadamni tilimiz mustaqilligi bilan boshlagan edik. Bunga ham yaqinda 31 yil to'ladi. Bu oz muddat emas, albatta.

Xo'sh, shu fursat ichida o'zbek tili davlat tili sifatida o'z mavqei butun yurtimiz uzra tiklab oldimi? Hanuzgacha tilimizni buzib, ruscha- internatsional so'zlar qo'shib yohud o'zi shevasida xohlagancha gapiradigan yurtdoshlarimiz, korxonalar, tashkilot rahbarlarini uchratamiz. Rasmiy ish qog'ozlari, davlat ishlarida o'zbek tili yagona hukmron til emasligi sir emas. To'g'ri bugungi kunda chet tillarini o'rganish, jahonga chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu esa ko'pgina yoshlarimizning tilimizni ikkinchi darajaga qo'yib chet tillarini o'rganishga kirishganligi, kundalik hayotimizda ham turli tillarni qo'shib, tilimizni buzib gapirayotgani, ismlar o'rniga turli laqablar qo'yib murojaat qilishayotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Axir, o'z ona tilini puxta o'rganmay turib, bu tilda yaratilgan go'zal asarlarni o'rganmay turib, ona tilimizning betakror jozibasini his qilmay turib, chet tillarini o'rganish mumkinmi? Ona tilimiz ming yillar davomida rivojlanib, sayqallanib, go'zallashib kelmoqda. XV asrda jahonga dong'i ketgan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy o'z ijodi bilan turkiy tilning naqadar boy, imkoniyati keng, go'zal til ekanligini isbotlab, turkiy tilni kamsitib qoralaganlarni lol qoldirgan edilar.

Navoiydan so'ng deyarli barcha ijodkorlar undan ilhom olib, ijod qildilar.

Ona tilimiz jahonga yuzlashib, rivojlanib, sayqallanib boraverdi. XX asrga kelib esa siyosiy tuzum sabab tilimiz va yozuvimiz ko'plab muammolarga va o'zgarishlarga uchradi. Chunki bir asr davomida 4 marta: 1929-yil, 1940-yil, 1993-yil hamda 1995-yillarda o'zbek alifbosi o'zgardi. 2019-yilda ham alifbomizdagi harf birikmalarini o'zgartirish uchun turli bahs-munozaralar bo'ldi. Harf birikmalarini turk alifbosidagi harflar bilan o'zgartirmoqchi bo'lishdi. Yaxshiyamki, ushbu loyiha amalga oshmadi. Bu esa bizning milliyligimizga putur yetkazardi. Keyingi vaqtda turk seriallari yoshlarimiz tarbiyasi va ma'naviyatiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazib borayotgani sir emas.

Davlat tiliga munosabatning yaxshi emasligini ko'cha-kuydagi turli bannerlarda, ko'rgazmalarga, reklama roliklarda turli savdo shaxobchalari, tadbirkorlik shaxobchalari nomlaridagi turli xatoliklar kishi ko'nglini ranjitadi. Bu boradagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun harakat qilinayotgan bo'lsa-da lekin u kerakli natija bermayapti. Tilimizga bo'lgan bunday hurmatsizlikni ko'rib turib shu millat fuqarosi hamda mutaxassis sifatida qalbim og'riydi. Milliy tilimiz "**Faqat oktabr oyidagina eslanadigan ona tilim**" bo'lmasligi uchun barchamiz harakat qilmog'imiz lozim.

Meni bir muammo o'ylantiradi. Buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan ona tilimizning o'z yozuvi yo'q. Lotin, krill, ba'zan turk yozuvlari bilan qorishib, bugungi kunda ba'zi e'tiroz va munozaralarga sabab bo'layotgan alifbomizni o'z harflarimiz bilan ifodalani, o'zbek tilining barqaror alifbosi deyishning imkoni yo'qmikan?

Ona tili- bu millatimiz ruhi, milliylik ifodasi, ma'naviyat ko'zguvidir. Shunday ekan, ona tilimizga nisbatan hurmatsizlik va bepisandlik qilayotgan shaxslarga nisbatan qonun doirasida jazo qo'llanishi lozim.



Zero, onamiz kabi mo'tabar va yagona tilimizni e'zozlash, rivojlantirish, asrab-avaylab hamda jahon tillari darajasiga yetkazish uchun hammamiz bir tan, bir jon bo'lib harakat qilmog'imiz lozim. Ona tilim- onam kabi yagona va muqaddasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent 2008.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” 2002.
3. Alisher Navoiy “Muhokamatul lug'atayn” Toshkent.



О‘QISH DARSLARIDA О‘QUVCHILAR NUTQINI О‘STIRISH USULLARI

Safarova Gulbahor

Navoiy viloyati Xatirchi tumani
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998 942204009

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich talimda o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish ona tili va o‘qish fani vazifalaridan ekanligi hamda matn ustida ishlash jarayonida tanlab hikoya qilish va ijodiy ishlar o‘tkazish usullarini qo‘llash haqida fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Nutq, tafakkur, aloqa quroli, me‘yor, vazifa, faktik mazmun, matn, bir qismi, voqea, syujet, qo‘rqoq, qo‘zichoq, qayta hikoyalash, insenirovka, sahnalashtirish, ssenariysi, rasm chizish, monologik, dialogik.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma shaklda bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va motor-harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi.

Boshlang‘ich ta‘lim ona tili va o‘qish fanlari o‘quv dasturida o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash, og‘zaki va yozma nutqda adabiy nutq me‘yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat ekanligi, “O‘qish” fani orqali o‘quvchilarning savodxonlik darajasi shakllantirilib, og‘zaki va yozma nutqi rivojlantiriladi, tovush va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish o‘rgatiladi, deb ko‘rsatilgan.

Ma‘lumki, nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda o‘stiriladi. Ushbu maqolamizda o‘qish fani mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishda tanlab hikoya qilish va ijodiy ishlar o‘tkazish usullarining ahamiyatli jihatlari haqida so‘z yuritamiz.

“O‘qish kitobi”da berilgan hikoya, ertak va boshqa matnlar bo‘yicha yangi mavzuni o‘rganishda tanlab hikoyalash usulini qo‘lash ta‘lim samaradorligini oshiradi. Tanlab hikoyalashning o‘ziga xos vazifasi asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Tanlab hikoyalash usuli o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvurini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, zehni rivojlantirishga yordam beradi.

Tanlab hikoyalash usulini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. O‘quvchi o‘qigan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so‘zlab beradi.

2. O‘quvchi hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi.

3. O‘quvchi hikoya mazmunini faqat bir syujet yo‘nalishida so‘zlab beradi.

O‘quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o‘qilgan matnni tahlil qiladi. Bunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o‘stiradi va o‘qilgan matn mazmunini o‘zlashtirishga yordam beradi.

4-sinfda Sunnatulla Anorboyev “Qo‘rqoq” hikoyasini o‘rganishga 2 soat ajratilgan bo‘lib, 2-darsdan so‘ng kelgusi darsda o‘tilgan mavzuni so‘rash qismida qayta hikoyalash usulini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga “Qo‘rqoq” hikoyasi matni asosida qayta hikoyalash vazifalarini xattaxtaga yozib, ushbu asosida tayyorlanib kelishlarini aytadi. Bunda o‘quvchilarga o‘qigan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so‘zlab berishlari quyidagi tartibda beriladi:

1. Bolalar Bahromga “Qo‘rqoq, qo‘rqoq!” deb ozor berishlari voqealarini so‘zlab beradi.

2. Bahromning qo‘rqoq bo‘lib qolganligi nima sababdan ekanligini so‘zlab berish.

3. Matnda tabiat manzarasi tasvirini aytib berish.

4. Bahromning qo‘zichoqni qutqarganini hikoya qilish.

5. Bahromni maktabda o‘rtoqlari qanday kutib olganini hikoya qilish.

6. Hikoyani o‘qishda o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirishga yordam beradigan ijodiy ishlar quyidagilar:

1) ijodiy qayta hikoyalash;

2) matndan insenirovka qilish yoki sahnalashtirish;

3) o‘qilgan asarga rasm chizish;



4) hikoyani davom ettirish.

1. Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan hikoyaning shaklini o'zgartirib hikoya qilinadi yoki hikoyani yangi epizodlar bilan to'ldirib hikoya qilinadi.

2. Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan hikoyani sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariysini tayyorlaydilar, sahnaga mos kiyinishi, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o'ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o'rgatish nuqtayi nazaridan eng muhim ish hisoblanadi).

3. O'qilgan hikoyaga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki hikoyadan olgan taassurotlari asosida o'zlari rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan rasm chizadi.

4. O'qilgan hikoyani davom ettirish usuli. Bu usul hikoyaning mazmunini davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Yuqoridagi og'zaki nutq o'stirishga oid ikkita usulni qo'llash bo'yicha o'quv-metodik adabiyotlarga tayangan holda misol keltirildi. Umuman olganda, o'qituvchi o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlashda mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy fikrlashga yo'naltiradigan ish turlariga katta ahamiyat berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinf o'qish fani o'quv dasturi. 2017-yil.
2. Amaldagi 4-sinf "O'qish kitobi" darslikligi.
3. "O'qish kitobi" 4-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma.
4. Elektron ta'lim resursi: [www. Ziynet. uz](http://www.Ziynet.uz)



BEKJON RAHMON IJODIDA O‘ZBEK MUSIQASHUNOSLIGI MASALALARI

Qurbanova Kumushoy Rashidovna

O‘zMU Jurnalistika fakul’teti

“Adabiyotshunoslik” yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr Xorazm adabiy muhitining yetakchi namoyandasi hisoblangan Mulla Bekjon Rahmon ijodida o‘zbek musiqashunosligi masalalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mulla Bekjon Rahmon, Xorazm musiqa tarixchasi, “Alanga” jurnali, Polvonniyoz Mirzoboshi, Polvon Niyoz, shashmaqom nag‘malari

Serqirra ijod sohibi bo‘lgan Mulla Bekjon Rahmon faoliyatida o‘zbek musiqashunosligiga doir ko‘plab ishlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, M.Devonzoda bilan hamkorlikda yozgan 1925-yilda Moskvada chop qilingan “Xorazm musiqa tarixchasi” kitobi o‘zbek musiqashunosligi sohasida alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda shuni aytib o‘tish joizki, Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘lining “Xorazm musiqa tarixchasi” dan tashqari birorta asari bizgacha yetib kelmagan. Bu asar xususida keyingi fasllarda batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu asarning uzviy davomi bo‘lgan, “Alanga” jurnalining 1928-yil 3-4-sonlarida bosilib chiqqan “O‘zbek notasi” maqolasi Bekjon Rahmonning musiqashunoslik sohasidagi yana bir yutug‘i edi. Ushbu maqolada muallif Muhammad Rahimxon II davrida o‘zbek notasining qay tarzda isloh qilinishi hamda qanday o‘zgarishlarga duch kelganligi haqida hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ma‘lumotlarni berib o‘tgan. Maqola o‘zbek notasining 1873-1874-yillar orasida Xorazmda ixtiro qilinganligi, bu notaning nomi “tanbur chizig‘i” deb shuhrat topganligi haqidagi fikrlar bilan boshlanadi. Notani ixtiro qilgan kishi Xorazmning Xiva shahrida tug‘ilgan, Xorazmning mashhur musiqashunoslaridan Polvonniyoz Mirzoboshi ekanligi ta‘kidlangan. Maqola bayoni quyidagicha:

Xiva xonlaridan Muhammad Rahimxon II tanbur, dutor va boshqa sozlarda o‘ynalib yurgan nag‘malarni qog‘ozga olish va kitob qildirtirish orzusiga tushadi hamda bu ishni amalga oshirish ishini Polvon Niyozga buyuradi. Shundan keyin Polvon Niyoz quyidagicha reja tuzadi:

- 1) tanbur pardalarining sonlari va ovozlarni e‘tiborga olish;
- 2) tanbur pardalarining oraliqlariga mutanosib ufqiy chiziqlar bilan pardalarni ko‘rsatish.
- 3) nag‘malar chalinganda tanbur toriga “noxun” ni qancha borib qaytishini ifodalash;
- 4) noxunning borgan va qaytganini bildirish uchun har biriga ayrim “nuqtalar” belgilash;
- 5) noxunning pardaga borishi uchun qo‘yilgusi nuqtani tanbur pardasini ko‘rsatgan chiziqning ust tomonida, qaytishi uchun esa ost tomonida ko‘rsatish.

Mana Polvon Niyoz o‘zining tuzgan shu qisqa rejasi yuzasidan ish boshlab “shoshmaqom” nag‘malaridan “segoh” nag‘masini tamom qiladi va qog‘ozga tushiradi.

Maqolaning “O‘zbek notasining islohi va tarqalishi” deb nomlangan qismida

Polvon Niyoz tomonidan ixtiro qilingan notani tugallash ishi uning o‘g‘li Muhammad Rasul Mirzoboshiga yuklanganligi yozilgan.

Muhammad Rasul Mirzoboshi otasining ixtiro qilgan notasini quyidagicha tuzatadi:

- 1) yuqori pardalardan pastga tomon yoki pastgi pardalardan yuqoriga tomon chiqilib tushish holatini ko‘rsatish uchun – pardalar o‘rnida bo‘lg‘an ufqiy chiziqlar orasiga – chiziladigan chiziqni moyil hamda bitishik amas, balkim, amudiy hamda ayrim chiziq qiladi;
- 2) shashmaqomning butun nag‘malarini “xonalarga” ajratadi;
- 3) har bir maqomning boshida, shu maqomga maxsus usulni ham yozadi;
- 4) aytimli (go‘yanda bilan) chalinadigan nag‘malarni ayrim, aytimsiz (go‘yandasiz) chalinadigan nag‘malarni ayrim bir mujallad qilib, ikki mujallad notani ishlab chiqaradi. Aytimli nag‘malarga maxsus g‘azallarni tartib bilan har bir xonaning ustiga yozadi.

5) shashmaqom nag‘malari eskidan Xorazm musiqashunoslarining bog‘lagan nag‘malari bilan “olti yarim maqom” deb sanalib kelib, yarim maqom hisobida bo‘lg‘an “panjgoh” nag‘masiga yana bir necha nag‘malarni qo‘shib shashmaqom nag‘malarini “yetti maqom” ga yetkazadi.

Maqolada qayd etilishicha, Polvon Niyoz tomonidan ixtiro qilingan va o‘g‘li Muhammad Rasul tomonidan ixtiro qilingan o‘zbek notasi Xorazm o‘zbeklari orasida tarqalib ketadi. Musiqa havaskorlari shu notadan foydalanib nag‘malarni o‘rganishni boshlaydilar. Bu kunda tanburdan



boshqa, dutor nagʻmalarining bir talayi hamda yangidan chiqarilgan baʼzi oʻzbek milliy yoʻllarining shu nota boʻyicha kitobatga olinganidir.

Polvon Niyoz bilan oʻgʻli Muhammad Rasul har ikkalasi ham Xorazmning birinchi musiqiy ustozlari boʻlishlari bilan birga shu zamonning saroy shoirlari qatorida ham ularning oʻrinlari bordir. Polvon Niyozning sheʼrdagi taxallusi “Komil” boʻlib, oʻgʻliniki “Mirzo”dir. Har ikkilasining ham bosilgan devonlari, forsiy va arabchadan tarjima qilgan kitoblari bordir.

Xorazmda ixtiro qilingan oʻzbek notasi oʻzbek milliy nagʻmalari uchun juda qulaydir. Shunga koʻra oʻzbek notasi eski nagʻmalarni saqlash va yangidan tuzilgan nagʻmalarni tarqatish va ommalashtirishda birinchi vositachilikni oladir. Agar maorif komissarligi tomonidan oʻzbek notasini oʻrganish xususida, umuman, maktablar, xususan, musiqiy maktablarga rasmiy buyruqlar chiqarilsa hamda shu notani nashr qildirib tarqatilsa, oʻzbek milliy musiqiy sanʼatining yuksalishi uchun toʻgʻri madaniy bir qadam tashlangan boʻlar edi, deya maqolasini yakunlaydi Mulla Bekjon Rahmon oʻgʻli.

Bu maqola bilan tanishib shunday xulosaga kelish mumkinki, Bekjon Rahmon musiqa sohasi ilmini puxta egallagan olim sifatida oʻz fikrlarini izchil bayon etgan. Xorazmda vujudga kelgan oʻzbek notasi va unda keyinchalik sodir boʻlgan oʻzgarishlar jarayoni haqida batafsil maʼlumot beradi...

Aynan, bu kabi tarixiy maʼlumotlar orqali oʻquvchilar oʻz tarixini mukammal oʻrganib oʻzlarida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantiradilar...

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Муҳаммад Юсуф Девонзода. Хоразм мусиқий тарихчаси. – Т.: “Mumtoz soʻz”, 2014



ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDAGI MA’NAVIY TUSHUNCHALAR TAHLILI

Saloydinova Nazokat Shamsidinovna
Karmana tumani 14-umumta’lim maktabi
1-toifali ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi
goibnazarovsuxrob@gmail.com
+998(93) 158 17 79

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asarining inson ma’naviy tarbiyasidagi muhim o’rni, andisha, uyat, or-nomus, vijdon kabi tushunchalar yozuvchi asarlarining ma’naviy ustunlari ekanligi, adibning so’z qo’llash mahorati orqali so’zning inson ruhiyatiga ta’siri xususidagi xulosalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: ishqning sirli mo’jizalari, andisha, uyat, or-nomus tushunchalarining asardagi o’rni, ma’naviyat ustunlari, sharq otaligi, tasvir va ifoda, ruhiy kechinma.

O’zbek nasrining yetuk darg’alaridan biri XX asr o’zbek adabiyoti sahnasida munosib iz qoldirgan ulug’ daholardan biri moziyga qaytib ish ko’ruvchi, tarixning eng kirlik, qora kunlari bo’lgan keyingi xon zamonlaridan so’ylab beruvchi adib Abdulla Qodiriyning mashhur “O’tkan kunlar” romani milliy kitobxonlik madaniyatining eng sara namunalaridan biri sanaladi. Romanda xalq hayotini ifoda etuvchi eng muhim masalalar qamrab olingan. Ayniqsa, hayotning azaliy mavzusi bo’lgan muhabbat, vafo, sadoqat, ishq tushunchalari, sharqona odob kabilar asar qahramonlari timsolida keng yoritib berilgan. Jumladan, romanda keltirilgan ishq qahramonlari bo’lmish Otabek, Kumush va Zaynablarning sevgi yo’lidagi taqdir qismatlari orqali bu tushunchalar yanada kengroq bayon etilgan.

Asarning bosh qahramoni Otabekning ishq kechinmalarini kuzatamiz:

“Og’ir tabiatlik, ulug’ gavdalik ko’rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko’zlik mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabza urgan bu yigit – Otabek bo’lib, Yusufbek hojining o’g’li edi. Marg’ilonga kelib, bir mo’jizani uchratgan bu oshiq o’zining farishtasifat ma’shuqasini Kumushbibisini uchratib qoladi va buni o’zidan boshqa bilmasligini istab bu haqda hatto hech kimga ham og’iz ochmaydi”.

“Oppoq ruxsori quyuq jingalak kipriklar ostidagi tim qora ko’zlari qop-qora qiyiq qoshlari ko’rkiga ko’rk qo’shgan Kumushbibi ham ko’ngullariga g’ulg’ula solagan barno yigit haqida biror kimsaga ko’ngil yormagan. Botinan va zohiran pokiza bo’lgan ikki qalbning ko’ngillari sof, niyatlari beg’ubor”. Birgina mana shu epizodning o’zida ibrat bo’larli haqiqiy ishq fidoyilarini ko’rish mumkin.

Andisha, uyat, or-nomus, vijdon tushunchalari Qodiriy romanlarining ma’naviy ustunlaridir. Yozuvchi asar ustida qalam tebratar ekan, bir lahza ham o’zining “Sharq otaligi” (Qodiriy ta’biri), o’zbek farzandi ekanligini unutmaydi. Asarning 7-sahifasidayoq ya’ni 1-bobi (“Otabek Yusufbek hoji o’g’li”)da shunday lavha mavjud: Otabekni ko’rgani karvonsaroy hujrasiga Homid bilan jiyani Rahmat keladi. Hasanali ular bilan so’rashib, choy qaynatgani chiqdi. Rahmat so’radi:

-Bu kishi kimgiz bo’ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib, so’ngra javob berdi:

-Qulimiz.

Bu so’zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

-Qulingiz?

-Shundog’.

Syujetning keyingi voqealarida Otabek bilan Hasanali munosabatlari haqida mufassal tasavvurga ega bo’lamiz. Bu oqko’ngil mo’ysafidni Otabek uchun ma’naviy padar darajasidagi bir kishi ekanini anglaymiz. Ana shu munosabat Otabek uni “hujradan uzoqlatib” so’ng kimligini aytadi. Birgina shu harakat uning qalbidagi insoniy andishadan dalolat beradi. Shuningdek, yana bir nozik ruhiy manzarani Ziyo shohichi bilan Hasanali Mirzakarim qutidorning uyiga sovchilikka kelganlarida ham ko’rish mumkin. (“Qutlug’ bo’lsin!” 41-bet) Ziyo shohichi ma’nodor tarzda so’z aylantirib muddaoni qutidorga bir qator anglatgandek bo’ladi. Qutidor “nima uchundir yana o’zini tag’ofilga solib” bek kimga ko’ngil qo’yganini so’raydi. Bunga javoban Ziyo shohichi:



-Sizning karimangiz – dedi

Qutidor o‘zining o‘rinsiz savolidan yerga qaradi. O‘rtada tag‘in so‘zsizlik o‘ngg‘aysizlik boshlandi.

Mana shu o‘ngg‘aysizlik holatini tasavvur etib, “karimangiz” so‘zi o‘rniga “qizingiz” degan so‘zni qo‘yib ko‘raylik. Kishi qulog‘iga dag‘al va xijolatli eshitiladi. Shuning uchun ham topib so‘zlagan Ziyo shohichiga, qolaversa, so‘z san‘akoriga tahsin aytmay iloj yo‘q.

Asarda yana shu narsa e‘tiborliki, muallif andisha so‘zini kam hollarda zarur o‘rinlarda ishlatgan. Butun ijodi davomida ushbu muqaddas insoniy tuyg‘uni teran anglagan Qodiriy bu so‘zni huda-behuda tilga olmaydi. Boisi, adib va uning oliyjanob qahramonlari tasavvurida odamzot uchun “andishasiz”, “uyatsiz” degan so‘zdan kuchliroq va og‘irroq haqorat yo‘q:

“Otabek Homid uyushtirgan tuhmatga qolib(“Quvlanisht”7- bob,184-bet) qutidorning qahriga duchor bo‘ladi. Qutidor titroq va hayajon bilan: “Uyatsizga mening uyimda o‘rin yo‘q, uyatsiz bilan so‘zlashishga ham toqatim yo‘q” deydi. Shuningdek, manfur Homid Otabek nomidan bitgan soxta taloq xatini o‘qib(“Xiyonat”5-bobi,170-bet) Kumush qay holga tushishi: “U bu maktubni o‘zining so‘nggi tomchi kuchi bilan o‘qib tamom qildi, jonso‘z tovush ila “Uyatsiz!” deb qichqirdi va yerga yiqilib o‘zidan ketdi”. Romanda yana bir shunday holatga duch kelamiz: “Homidga nisbatan g‘azabi eridan ko‘ra kuchliroq bo‘lgan Oftob oyim titroq tovush bilan “Uyatsiz Homid” deb ataydi. Donishmand adib o‘z asarida andisha va uyat so‘zlariga bu qadar urg‘u berib qayta-qayta takrorlashining sababi axloqiy qoida ustunlaridan biri uyat, Abdulla Qahhor ta‘biri bilan aytganda, faqat insonga xos tuyg‘u bo‘lib hayvon uyat qilolmagani uchun insonga yaqinlasholmaydi, ammo inson uyatini yo‘qotib hayvonga yaqinlashishi mumkin.

Yozuvchi qahramonlari ham yuqorida tilga olingan odob qonunlariga bo‘ysunadilar, shu tariqa ko‘z o‘ngimizda hayo va odobni madaniyat va insoniylikni tiriklik asoslari deb anglagan bir qancha kishilarning jozibador siymolari asarda namoyon bo‘ladi.

Kitob shunisi bilan qadrlil, ahamiyatliki, undagi har bir obrazda o‘zbek xalqining butun hayoti, ziyolilari aks etgan. Hoji ota tarbiyalagan Otabek dono, bosiqiligi bilan namuna bo‘lsa, uning yori Kumushbibi esa sharqona odobni o‘zida mujassam aylaganligidan o‘rnak bo‘larli darajada. Zero, Kumushning qalbida Otabekka nisbatan buyuk muhabbat tug‘dirgan narsa ham uning hayosidir. Hayo uni ota-ona orzusi deb Zaynabga uylanayotgan sevgilisiga bir og‘iz yomon so‘z, hatto piching aytishdan saqlaydi. Birgina shu fazilat uni doim uyat pardasi muhofazasida saqlaydi.

Xulosa o‘rnida aytganda, “So‘z so‘zlashda va undan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”ligini (A.Qodiriy) bir lahza ham unutmagan adibning mazkur asari qayta-qayta o‘qilsa-da, yangi ma‘no kashf etganligi, qolaversa, axloqiy ma‘naviyatimizning bor jozibasini oliyjanob qahramonlar nutqida badiiy so‘z qudratini tilning keng va betakror imkoniyatlari orqali ifodalaganligi, shuningdek, o‘z so‘zi bilan kitobxonni o‘ziga ohangrabodek tortuvchi quvvatga ega ekanligi bilan ulug‘ so‘z san‘atkori va uning asarlari o‘z qadr-qimmatini aslo yo‘qotmaganligi bois ma‘naviyatimizning eng sara namunasi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qodiriy “Otkan kunlar”romani. Toshkent G‘. G‘ulom nashriyoti. 1994- yil
- 2.”Til va adabiyot ta‘limi” jurnali. Toshkent. 2014- yil 4-son
3. O‘zbek tilining izohli lugati. “O‘z ME” nashriyoti Toshkent. 2010- yil 5- jild. 475-bet



ЖОРЖ ОРУЭЛЛ АСАРЛАРИДА ТОТАЛИТАР ТУЗУМНИНГ САТИРИК ИФОДАЛАНИШИ

Самандарова Сожида Фурқат қизи
ЎзДЖТУ 2-курс магистранти
sojida.samandar0791@gmail.com

Аннотация: Инглиз ёзувчи ва журналисти Жорж Оруэлл ўзи яшаган XX аср биринчи ярмида Британия ва дунё сиёсий тизимида вужудга келган вазият ва ўзгаришларга тақидий нуқтайи назардан ёндашиб, сиёсий майдондаги демократия ва инсонийликка зид эврилишларни ўзининг бир қатор мақолалари ва романларида аллегорик ва сатирик жиҳатдан ёритиб, шу орқали ўзининг ижтимоий-сиёсий қарашларини, жамият фаровонлиги йўлида амалга оширилиши зарур бўлган ислохотларни ўтқир қалами орқали кўрсатиб бера олган. Ушбу мақолада Жорж Оруэлл қаламига мансуб «Ҳайвонлар хўжалиги» қиссасининг қисқача таҳлили асосида ёзувчи яшаган даврда ҳукм сурган тоталитаризм тузумининг баъзи элементлари ёритиб берилди.

Калит сўзлар: аллегория, сатира, тоталитар тузум, сўз эркинлиги, сиёсий романчилик, танқидий журнализм

Инглиз ёзувчиси Жорж Оруэлл (ҳақиқий исми Эрик Артур Блейр) 1903-йилда Бенгалиянинг ҳиндлар яшайдиган провинциясида ўртаҳол ҳарбий амалдор оиласида туғилган. 13 яшар пайтида Буюк Британиянинг бир йўла иккита олийгоҳи стипендиясига сазовор бўлган ёш истеъдод эгаси нуфузи энг баланд бўлган Итон коллежини танлаган. Кейинчалик берган интервьюларида ёзувчи бу даргоҳнинг ўз ҳаётида унчалик катта таъсирга эга бўлмаганлигини ва деярли ҳеч нарса ўрганмаганини айтиб ўтган. 1922-йилда Эрик Ҳиндистондаги империя полицияси сафига ҳарбий хизматга кириб, ўша пайтлар Британия мустамлакаси бўлган Бирмага кетган. Ҳарбий хизмат мобайнида Британия ҳукуматининг мустамлакачилик истибдодига ўз кўзлари билан гувоҳ бўлгач, империя юритаётган сиёсатдан норозилиги кучая борган. Эрик Блейр 1927-йилда империя полицияси хизматидан бўшаб «Жорж Оруэлл» тахаллуси билан ёзувчилик қилишни танлаган ва бу танлов унинг ўрта синф вакили мақомидан батамом воз кечиб, Лондондаги қашшоқ ва афтодаҳол одамлар орасида чор-ночор умргузаронлик қилишига олиб келган. У бир қанча вақт идиш ювувчилик ва оддий мардикорликни касб қилиб, бошқа бошпанасизлар қатори атроф қишлоқларни кезиб юрган. 1928-йилда эса Парижга кўчиб келиб, ишсизлик, камбағаллик ва ижтимоий нотенглик ҳақида газеталарга мақола ёзиб, базўр тирикчилик қила бошлаган. Дарбадарликда бошидан кечирганлари асосида ёзилган «Париж ва Лондондаги фақир ҳаётим» номли илк китоби 1933-йилда Лондонда босиб чиқарилган. 1936-йилда ёзувчи фуқаролар урушида фашистларга қарши курашиш учун Англияни тарк этиб, Испанияга йўл олган. Урушда бошидан кечирганлари унинг сиёсий қарашларини янада мустаҳкамлаш билан бир қаторда уни социализм жонкуярига айлантирган (У собиқ Совет Иттифоқида жорий этилган коммунизмни асло ёқламаган). Испаниядаги фуқаролар уруши, шунингдек, ёзувчининг тоталитаризмнинг Европа келажагига солажак муқаррар хавфи борасидаги асосли фикрларини юзага чиқарган «Каталонияга эътиқод» (1938) номли асари учун ҳам асосий мавзу вазифасини ўтаган. Иккинчи жаҳон уруши мобайнида Оруэлл Иттифоқ кучлари ва фашистлар қўллаган тарғибот усулидан қаттиқ норози бўлган ва уруш ниҳоясига етар чоғида ўзига шухрат олиб келган илк романи «Ҳайвонлар хўжалиги» (1945) ни ёзиб тугатган. Мазкур асар ёзувчини дунё миқёсида машҳур қилиб юборган. 1949-йилда Оруэлл «1984» романини ёзиб тугатган, бироқ айни ижодининг чўққисига етганида сил касаллиги билан оғриб, бир йилдан сўнг вафот этган. Ўзининг 47 йиллик қисқа умри мобайнида Жорж Оруэлл серкирра ижод қилиб, 500дан ортиқ мақола ва тақризлар, 18 та шеър, 7 та очерк, 6 та роман, 5 та ҳикоя, 4 та сценарий ва битта пьеса яратган, шунингдек, бир қатор журнал ва газеталарга муҳаррирлик қилган, бир неча йил мобайнида Би-Би-Си радиосида бошловчи бўлиб ишлаган. Ёзувчи то умрининг охиригача қуйи табақа ҳуқуқларини ёқлаб, ижтимоий ва сиёсий адолатсизликларни қоралаб яшаган.

Жорж Оруэллнинг ёзувчи сифатидаги фаолиятини икки қисмга бўлиш мумкин, яъни бир туркум асарларида мустамлакачилик, қашшоқлик ва ижтимоий нотенглик сингари



масалаларни илгари сурса, 1936-йилдан кейин ёзилган иккинчи туркум асарларида тоталитар тузум кирдикорларини очиб беришга, шу орқали бўлажак даҳшатлардан инсонларни огоҳлантиришга ҳаракат қилган. Испанияда тоталитар тузумнинг демократия устидан ғалаба қозонганини ўз кўзи билан кўриб келган адибнинг сиёсий нуқтайи назари тамомила бошқа йўналишга ўтиб, ўша замон сиёсатининг энг асосий муаммоси эркинлик эканлигини тушуниб етган. Ўзининг «Нега ёзишим ҳақида» номли мақоласида бу ўзгаришни куйидагича ифодалайди: «1936-1937-йиллардаги Испаниядаги уруш ва бошқа воқеалар сабабли ўзимнинг сиёсий позициямни билиб олдим. 1936-йилдан буён ёзган жиддий асарларимнинг ҳар бир сатри бевосита ёки билвосита тоталитаризмни қоралаб, демократик социализмни ёқлайди» (5;49).

«Тоталитаризм» лотин тилидан олинган сўз бўлиб, нодемократик давлат бошқарув шаклларида бири ҳисобланади. Тоталитаризмда жамият ҳаётининг барча соҳалари устидан давлатнинг тўлиқ назорати ўрнатилади, конституциявий ҳуқуқ ва эркинликлар тугатилади, бир шахс, ижтимоий гуруҳнинг яққаҳоқимлигига сўзсиз бўйсунилади, муҳолифат ва ўзгача фикрловчилар қатағон қилинади (7;1). Оруэлл назарда тутган ғоя шундан иборатки, фашизм ҳам, коммунизм ҳам бир хил манфаат йўлида асл мақсадларини яшириш мақсадида ниқобланиб олган бир кучдир. Оруэллнинг тоталитар тузумни қоралаб ёзган асарлари сирасига «Каталония эътиқод», «Ҳайвонлар хўжалиги», «1984», «Фашизмнинг кароматлари», «Адабиёт ва тоталитаризм», «Уэллс, Гитлер ва дунё мамлакати», «Британиядаги антисемитизм», «Адабиёт тўсиғи», «Сиёсат ва инглиз тили» сингари роман, қисса ва мақолаларни киритиш мумкин. Ваҳоланки, Оруэлл бошқа асарларида тоталитар тузум мафқурасини «Ҳайвонлар хўжалиги» ва «1984» асарларидагидек кескин танқид остига олмаган. Шу сабабли ҳам мазкур мақолада асосий эътиборни «Ҳайвонлар хўжалиги» қиссасига қаратишни лозим топдик. «Ҳайвонлар хўжалиги» 1945 йилда нашр этилган бўлиб уни масалга ҳам ўхшатиш мумкин, чунки ушбу қиссада фермадаги ҳайвонлар мисолида ўша замон сиёсат оламининг энг йирик раҳбарлари Иосиф Сталин, Леон Троцкий, Адольф Гитлернинг хатти-ҳаракатлари, халқни ўз манфаатлари йўлида бўйсундириб тубанликка етаклаши сатира усулида баён этилган. Оруэлл Испаниядан қайтгач, адолат ва тенглик ҳақидаги ваъдалар аслида ёлғон эканликларини англаб, собиқ Совет Иттифоқидаги коммунистик мафқуранинг асл юзини очиб ташлашни мақсад қилган. Асарнинг кириш қисмида ёзувчи «Мен учун Ғарбий Европа халқларининг Совет режимининг ҳақиқий башарасини кўришлари жуда муҳим эди. 1930 йилдан бери олиб борган кузатишларим натижасида шуни айта оламанки, СССРда социализмга нисбатан интилиш умуман кўзга ташланмайди. Аксинча, унда синфий табақаланувчи жамиятга ўтиш белгилари тобора яққолроқ намоён бўлмоқда» дея таъкидлага (1;5).

Чуқур танқидий кўз билан қаралса, «Ҳайвонлар хўжалиги»нинг нафақат 1917-йилги рус инқилоби ҳақидаги, балки ўз асл мақсадидан оғишган дунёдаги барча инқилобларга қарши қаратилган сатира эканлигини пайқаш қийин эмас. Асарнинг илк бобидаёқ аччиқ кулгу ва донолик уфуриб турган сатрларга кўзингиз тушади, хусусан, Кекса майор «Инсон маҳсулот бермайдиган ягона маҳлукдир. У сут ҳам бермайди, тухум ҳам туғмайди, ферманинг ер майдонларини шудгорлашда омоч тортишга ҳам ярамайди. У жуда ожиз ва нотовон. ҳаттоки, тез югуриб куённи тутиб олишга ҳам қодир эмас. Лекин. ўртоклар, инсон ҳамма ҳайвонларга ҳукмини ўтказа олади. Ҳайвонларни аёвсиз ишлатиб, очларидан ўлиб қолмасликлари учунгина овқат беришади. Озиқ-овқатнинг кўп қисмини эса ўзлари учун сарфлашади. Бизнинг кучимиз ва меҳнатимиз билан ер ҳайдайдилар, гўнгимиз билан ерларни ўғитлайдилар. Лекин биз-чи, биз, ҳайвонлар, суягимизга ёпишиб кетган теридан бошқа ҳеч нарсага эга бўлмаймиз» (1;18) дея таъкидлаши ҳам қаҳрамонинг узоқни кўра била олувчи ва ақлли қаҳрамон эканлигига ишора қилади, шу билан бирга, айтадиган гаплари замирида ётган маъно одамнинг кулгини қистайди. Кекса майорнинг «Икки оёқлиларнинг бари душман. Тўрт оёқлиларнинг бари дўст» деган шиори ҳам унинг теран фикрлаҳидан дарак беради. «Ҳайвонлар хўжалиги» қиссаси Оруэлл ижодидаги том маънодаги бурилиш нуқтаси бўлган ва уни ўртамеёна романлар муаллифидан дунё бўйича энг таниқли ва қалами ўткир ижодкор сифатида намоёиш этган. Гарчи Оруэлл XX асрнинг биринчи ярмида Россияда юз берган инқилоб ва унинг халққа таъсирини танқидий йўналишда қаламга олган бўлсада, асар нашр қилинмасидан олдин кўплаб баҳс-мунозараларга сабаб бўлган, сиёсий талатўплар замонида анча вақтгача уни босиб чиқаришга тайёр жасоратли ношир



ҳам топилмаган.

Жамиятда кечаётган ижтимоий-сиёсий воқеаларни ҳолис таҳлил қилиб шу асосда танқидий мақола ва ҳажман йирик асарлар ярата олиш ҳам моҳир ёзувчининг энг муҳим жиҳатларидан бири саналади. Инглиз адабиётида ўзига хос из қолдириб кетган ёзувчи ва журналист Жорж Оруэлл ҳам ўз ижодида айнан шу йўлдан бориб, фикр ва сўз эркинлиги учун курашди, тоталитар тузумнинг одамлар эркинлиги устидан босим ўтказишига лоқайд қараб турмай бир қатор салмоқли асарлар ёзди. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Оруэллнинг роман ва эсселари, танқидий руҳдаги мақолаларида илгари сурилган асосий ғояларни яна кенгроқ очиш ва бугунги кунда ҳам долзарблигича қолаётган мавзуларни Оруэлл асарлари асосида таҳлил қилиш ижтимоий-сиёсий муаммоларнинг туб моҳиятини англаб муносиб ечим топишда катта аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. George Orwell, Animal Farm. Harlow: Longman, 1989. Print.
2. George Orwell, 1984. London: Secker and Warburg, 1949.
3. George Orwell, Fifty Orwell Essays.
4. Harold Bloom, Bloom's Modern Critical Views: George Orwell- Updated edition. Infobase Publishing, 2007.
5. Peter Hobley Davison, The complete works of George Orwell. London : Secker & Warburg, 1997
6. <https://nodirabegim.uz/archives/3351>
7. www.wikipedia.org/totalitarianism



ZULFIYA IJODIDA UMUMINSONIY G‘OYALAR UYG‘UNLIGI

Murodova Gullola Salimjonovna
Zangiota tumani 40-sonli maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
abbos.a_1990@mail.ru; +998977389394

Annotatsiya: Maqolada shoira Zulfiya she’rlarida hayotiy haqiqat va badiiy mahoratning ifodalanishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: badiiy ifoda, obrazlilik, falsafiy talqin.

Mohir so‘z san’atkorlari o‘z xalqi qalbining elchisi va timsolidir. Xalqning milliy xarakteri, nodir fazilatlarini, ezgu tuyg‘u va yuksak orzu-istaklari ijodkorlarning badiiy tafakkuri orqali butun insoniyatga, shuningdek, kelajak avlodlarga etib boradi. O‘zbek she’riyatining yirik namoyandasi bo‘lgan Zulfiya ana shunday ijodkordir. Shoira she’rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo‘nalishini, maqsadi, g‘oyasini belgilagan narsa ham xuddi shu umuminsoniy fazilatlaridir.

“Uning jahon minbarlaridan yangragan she’rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she’riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan” [I.Karimov]. Zulfiyaxonim lirikasi chindan ham ko‘p ovozli, serohang. Shoira qalb torlaridan chiqqan ohanglar tashqi dunyo – hayot zarblarining aks sadosidir. Uning umr yo‘ldoshidan ajralib, og‘ir iztiroblari singdirilgan vafoga yo‘g‘rilgan she’rlarida haqiqiy insoniy tuyg‘ularni kuzatishimiz mumkin.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o‘ti tanda yo‘q.
Kuz singari za’far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.
Shu kunlarda bahorga zorman,
Tan-xastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim? [Zulfiya: 314].

E’tibor qilsangiz, ushbu misralarda qandayin iztirob va hijron aks etgan. SHu kunlarda go‘yo rangi sarg‘ayib, kuz xazonidek bo‘lib qolganini ifodalash bilan bir qatorda o‘zini hattoki yolg‘iz holatini mevasiz daraxtga qiyoslaydi. Albatta, bizning ayollar turmush o‘rtog‘ini suyangan tog‘, o‘zlariga kuch va qalqon deb biladilar. Butun umr ularga suyanib, ishonch va e’tiqod bilan yashaydilar. Shu ma’noda shoira “Bahorga zorman” deya o‘zining shirin xotralarini qumsaydi. O‘zini jismonan mavjud bo‘lsa ham ma’nan yo‘qdek his qiladi. Zulfiya tashqi olamdagi rang-barang hodisalarning, o‘z ruhiga, dunyoqarashiga, taqdiri va istaklariga hamohangligini ifoda qiladi.

“Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi” [I.Karimov].

Shunday ekan, buyuk o‘zbek shoirasi, sadoqat va vaf o‘z timsoli – Zulfiya ijodi o‘zbek ayollarining qanoati, hayosini jahon hamjamiyatiga oshno etdi. Uning samimiy misralariga nazar tashlar ekanmiz, unda haqiqiy muhabbat, sabru qanoatni anglaymiz.

Mana bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib.
Tobuting boshida cho‘kkanimda tiz,
Farzandlar ko‘tardi qo‘limdan tutib [Zulfiya: 315].

Shoira umr yo‘ldoshining yorug‘ olamda yo‘qligi, endi qaytmasligin bilsa-da, uning bir umr uning ishq hamda sadoqati bilan yashadi. Bu esa she’rning so‘nggi misralarida o‘ziga xos tarzda ifodalangan.

Bilaman, rashk meni etardi halok,
Afzal ko‘rganingni qarg‘ab o‘tardim,
Izingdan yurmasdim soyaday g‘amnok,
Lekin ishq haqqi-la mag‘rur kutardim [Zulfiya: 315].



Mazkur misralarda matonatli, oqila va sadoqatli ayol siymosi gavdalanadi. Bu esa yoshlar uchun ibrat va hayotiy maktab bo'lishi shubhasizdir.

“Har bir insonning ichki va tashqi tuzilishi o'ziga xos bir olamki, uning betakrorligi o'zligida mujassam etilgan. Shunga asosan har bir san'atkorning olami – hayotiy tajribasi, bilim darajasi, didi, go'zallikni ko'ra bilishi, tasavvuri, hayot dunyosi, qalb ko'zi o'zigagina tegishlidir va ana shu o'zlik uning har bir asarida akslanadi” [Umirov: 214]. Shunday ekan, Zulfiya she'rlarida shoir shaxsiyati o'zining yorqin ifodasini topganligini kuzatishimiz va undan har bir o'quvchi o'z umrining mazmun-mohiyatini anglashi, ibrat olishi shubhasiz.

She'r va shoirlik bu tabiat ato etgan iste'dod egalarigagina nasib qiladi. Shoirani R.Hamzatov “O'z halqining taqdiri bilan qo'shilib ketgan” ijodkor sifatida, S.Kaputikyan esa Zulfiyani “Yuksalgan O'zbekiston kuychisi, ozodlikka chiqqan yangi Sharq ayollarining ramzi” – deya ta'riflaydi. Haqiqatan ham Zulfiya nafaqat o'zbek balki barcha millatlarga birdek yoqadigan, manzur bo'la oladigan she'rlar bitdi. SHunday ma'noda, shora ijodidagi keng dunyoqarash, badiiy tafakkur bizga hayotdan ibrat hamda maqsad ko'rsatib turadi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Zulfiya. Shalola. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyot, 1985
3. Umirov H. Adabiyot qoidalari. –T: O'qituvchi, 2010.



ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Азимова Зубайда Арабовна.

Навоийской область, город Зарафшан
Учитель русского языка
общеобразовательной школы № 12

Эгамова Мехринисо Каримовна

Навоийской область, город Зарафшан
Учитель русского языка
общеобразовательной школы № 12

Аннотация: Русский язык является одним из самых сложных языков в мире, поэтому при его изучении у иностранных обучающихся возникают некоторые трудности.

Ключевые слова: русский язык, образования, школа.

Обучение русскому языку как иностранному является очень сложным, но в то же время интересным процессом как для обучающихся, так и для преподавателя. Для успешного преподавания необходимо подробно изучить различные методики преподавания, а также учесть личностные и культурные особенности обучающихся. Важно отметить, что преподаватель иностранного языка особое внимание должен уделять именно коммуникативно-обучающей функции, что определяет важность построения учебного занятия на коммуникативно-речевой основе и позволяет ему лучше взаимодействовать с обучающимися. У иностранцев часто возникают различные проблемы при изучении русского языка, обусловленные сложностью изучаемого материала.

Однако данный вопрос также становится проблемой преподавателя, поскольку ему необходимо найти наилучший способ объяснения сложных, проблемных языковых явлений. Проблемы в изучении русского языка могут начаться на самом раннем этапе при изучении алфавита и фонетики. Обучающимся необходимо запомнить, как произносится каждая буква и каждый звук. Важно разъяснить особенности твердого и мягкого знаков, потому что они не имеют звука, а являются знаками разделительными и указывают на твердость или мягкость впереди стоящего согласного звука.

Особенности русской фонетики представляют собой большую трудность для иностранцев, поэтому преподаватель должен уделять внимание данному аспекту и регулярно проводить фонетические зарядки, фонетические диктанты, отрабатывать различные упражнения для тренировки и постановки звуков. Обучающимся необходимо научиться различать звуки на слух, поскольку существуют определенные трудности в распознавании слова по звучанию. При изучении фонетики преподаватель должен руководствоваться репродуктивным методом обучения, он должен стать образцом правильного произношения звуков, проговаривания слов. Как показывает практика работы с иностранцами, тренировка артикуляционного аппарата должна быть постоянной на начальном этапе каждого занятия по русскому языку.

Преподаватель должен показать иностранцам пример правильного чтения фразы-скороговорки, с учетом акцентологических норм, интонации, темпа и синтагматического ударения. Другой сложной проблемой при изучении русского языка как иностранного является усвоение грамматических законов и правил. Русский язык является флективным языком, то есть в выражении грамматических значений доминирует словоизменение при помощи флексий. Здесь особое внимание стоит уделить склонению (изменению слова по грамматическим категориям рода, числа и падежа). Особые трудности у иностранных обучающихся вызывает система падежей русского языка. Введение для изучения глаголов в конструкцию определяется тем, какое из падежных значений изучается на данном этапе. Для иностранцев большую сложность в изучении русского языка представляет синтаксис, так как в предложении нет строго закрепленного места за тем или иным его членом.



При организации учебного процесса преподаватель должен учитывать вероятные трудности усвоения учебного материала иностранцами и уделять каждой проблеме особое внимание, чтобы иностранные обучающиеся могли в полной мере использовать усвоенный материал в коммуникативной сфере.

Литература:

1. Власова Н. С. Русский язык как иностранный. –М., Типография Гутенберг, 2009.
2. Стародумов И. В. Опыт методики преподавания русского языка как иностранного // Педагогика высшей школы. Международный научный журнал. № 2 (8); «Молодой ученый», Казань, 2017.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000